



CHAT GPT HAQIDA TUSHUNCHА

Mahmudov M.N

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi,

Xakimova M.B

Andijon davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu qo'llanmada Chat GPT bo'yicha barcha savollarga javob topish mumkin. Shu bilan birga uning imkoniyatlari bilan tanishasiz.Insonlar hayotida qanday ahamiyat kasb etayotganini bilib olish mumkin.

Kalit so'zlar: Chat GPT, General Pre-trained Transformer, Open AI, Azure AI, Instruct GPT, Python, Gallyutsinatsiya, chat bot, Tay chat boti, Microsoft,

Chat GPT yaralish tarixi va imkoniyatlari

Chat GPT (inglizcha General Pre-trained Transformer)-Open AI kompaniyasi tomonidan **2022** yil noyabr oyida ishga tushirilgan chat-bot. Chat GPT-suxbat qurish,koddagi xatolarni toppish,she'r yozish,script yozish va hatto baxslashishgaqodir bo'lган chat-bot hisoblanadi.U sun'iy intellect chat-boti bo'lib turli savollarga javob berishi,dasturchilar uchun kod yozishga yordam berishi,talabalar uchun esa kurs ishlarini yozib berishi bilan qulayliklar tug'diradi OpenAI ning asosiy vazifasi inson miyasi bajara oladigan hamma narsani qiluvchi sun'iy intellektni yaratishdan iborat.Chat GPT OpenAI kompaniyasining yangi chat boti har qanday foydalanuvchi uchun mavjud bo'lган birinchi ko'p vazifali sun'iy intellect hisoblanadi.2022-yil noyabr oyi oxirida ta'sischilardan biri **Ilon Mask** bo'lган OpenAI kompaniyasi ChatGPT universal chat-botini taqdim etdi.U turli vazifalarni bajarishga qodir va hamma uchun mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra **Microsoft** hozirgacha OpenAI ga ChatGPT uchun **3 mlrd dollar** sarmoya kiritgan.Ikkala kompaniya eng samarali chat-bot va dasturlash yordamchisi yaratishdan ko'ra ko'proq narsani maqsad qilgan.

Ijtimoiy tarmoqlarda Chat GPT ni "**Google qotili**" deb ham atashmoqda. Bot 1 million foydalanuvchiga ega bo'lishi uchun atigi besh kun ketgan.Taqqoslash uchun **Netflix** shuncha foydalanuvchini **3,5** yilda,**Facebook** **10** oyda,**Spotify** **5** oyda,**Instagram** **2,5** oyda yig'a olgan.Yanvar oyiga kelib Chat GPT foydalanuvchilari **100** milliondan oshgan.



Chat GPT OpenAI n kompaniyasining **GPT-3,5** til modeli asosida **Azure AI** super kompyuterida yaratilgan. Chat-bot internetdan olingan bir qator matnlar va insoniy fikr-mulohazaga asoslangan mustahkamlovchi o'quv tizimidan foydalangan holda o'qitildi. Keyin neyron tarmoq o'z javoblaridan foydalaniib, ularni aniqroq va to'g'riroq qilish uchun bir necha marta qayta o'qitilgan. Ishlab chiquvchilar uni ishlatish uchun qulay, to'g'ri va "inson" qilishni maqsad qilganliklarini ta'kidladi. Chat GPT chiqqandan keyin OpenAI **29 milliard** dollarga baxolangani xabar qilingan.

Xususiyatlari va cheklovleri

Chat botning asosiy vazifasi inson suhbatdoshiga taqlid bo'lsada, jurnalistlar Chat GPT ning ko'p qirrali va imrovizatsiya ko'nikmalari jumladan, kompyuter dasturlarini yozish va disk raskadrova qilish qobiliyatini ham qayd etishdi. Chat GPT musiqa, telespektakl, ertak va talabalar insholarini yaratish, test savollariga javob berish (ba'zan, testga qarab o'rtacha imtihonchidan yuqori darajada) she'r va qo'shiq matni yozish, Linux tizimiga taqlid qilish, butun suhbat xonasini simulyatsiya qilish, o'yinlarni o'ynash vazifalarini bajargan. Chat GPT o'quv ma'lumotlari man sahifalarini va internet hodisalari va dasturlash tillari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, misol uchun **PYTHON** dasturlash tili. O'zidan oldingi Instruct GPT bilan taqqoslaganda ChatGPT zararli va yolg'on javoblarni kamaytirishga harakat qiladi. Bir misolda, Instruct GPT "Christopher Columbus 2015-yilda AQSH ga qachon kelgani haqida gapirib bering" so'rovining asosini haqiqat deb qabul qilgan bo'lsada, ChatGPT savolning kontrafakt xususiyatini tan olgan va o'z javobini nima bo'lishi mumkinligi haqida faraziy mulohaza sifatida belgilangan.

Ko'pgina chatbotlardan farqli o'laroq, ChatGPT xuddi shu suhbatda unga berilgan oldingi ko'rsatmalarini eslab qoladi; jurnalistlar bu ChatGPT dan shaxsiylashtirilgan terapevt sifatida foydalanishga imkon berishini taklif qilishgan.



OpenAI ChatGPT “**ba'zida aqlga sig'maydigan noto'g'ri yoki bema'ni javoblar** yozadi deb tan olgan.Bu xatti-harakat katta til modellari uchun keng tarqalgan va **Gallyutsinatsiya** deb ataladi. ChatGPT 2021-yildan keyin sodir bo'lgan voqealar haqida cheklangan ma'lumotga ega.Ma;lumotlarga ko'ra 2022-yil dekabr oyidan boshlab ChatGPT “**siyosiy fikr bildirishi yoki siyosiy faollik bilan shug'ullanishi**”ga ruxsat etilmaydi.

ChatGPT muammolari va ijobiy taraflari

Chatbotlar internetda joylashtirilgan katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirib,yangi ko'nkmalar o'rghanar ekan,haqiqiy faktlar va yolg'onlarni aralashtirib yuborishi ,noto'g'ri fikr va haqoratli so'zlardan foydalanishi mumkin.Masalan **2016** yilda Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan **Tay chatboti** tezda so'kinishni va irqchi so'zlardan foydalanishni o'rgangandi.Bundan tashqari ChatGPT ning bilimi 2021-yilgacha bo'lgan ma'lumotlar bilan cheklangan.

Haqoratli **content** paydo bo'lishining oldini olish uchun ChatGPTga ma'lum **modernizatsiya** tizimlari o'rnatilgan:

- U hech qanday masala bo'yicha shaxsiy fikr bildirmaydi;
- Irqi yoki jinsi yo'q;
- Dinga e'tiqod qilmaydi;



Shuningdek u qonunni qanday buzish haqida matnlar yaratishga to'sqinlik qiluvchi filtrlarga ega. ChatGPT ning insholar yozish qobilyati o'qituvchilarni tashvishga solmoqda.

AQSH da talabalar allaqachon bot tomonidan yaratilgan ishni o'zlariga tegishli deb taqdim qilishni boshlagan. ChatGPT matnlar yozib, tahrir ham qila oladi. Buning ortidan yaqin orada kopirayter va jurnalistlar ham o'z ishlarini yo'qotishi mumkin degan qo'rquv bor. Biroq Chatbotning eng katta muammolaridan biri bu-ijodkorlik. U yangi g'oyalarni taqdim qila olmaydi. Hozircha, sun'iy intellect mehnat bozorida inson o'rnini to'g'ridan to'g'ri almashtiradi degan gaplarni yozish juda oson. Tarixda ham sanoatda samaradorlikni oshirishga qaratilgan dunyoni larzaga keltiruvchi innovatsiyalar bo'lган. Mukammal sun'iy intellect tarixiy qolipni buzish ehtimoli bor. Oddiy odam qila oladigan deyarli har qanday vazifani bajara oladigan texnologiya insoniyatni noma'lum iqtisodiy hududga olib keladi.

ChatGPT 2022-yil dekabr oyida ijobiy sharhlar bilan kutib olindi. **The New York Times** uni "**ommaga taqdim etilgan eng yaxshi sun'iy intellect chatboti**" deb atadi. **Sanantha Lock The Guardian** ta'kidlashicha, "ta'sirli drajada bat afsil" va "odamga o'xhash" matnni yaratishga qodir. Texnologiyalar yozuvchisi **Dan Gillmor** ChatGPT dan talaba topshirig'ida foydalangan va u yaratgan matn yaxshi talaba taqdim eta oladigan natija teng ekanligini ta'kidlagan. 2022-yil dekabr oyida Google ChatGPTning kutilmagan kuchliligi a yirik til modellarining qidiruv tizimi biznesini buzish uchun yangi kashf etilgan salohiyatidan xavotir bildirdi va bosh director **Sundar Pichai** o'zining sun'iy intellect mahsulotlarida yordam berish uchun bir nechta bo'limlardagi guruhlarni "ko'tardi" va qayta tayinladi.

2023-yil 3-yanvardagi ma'lumotlarga ko'ra **Microsoft Bing** o'zining umumiy qidiruv tizimiga ChatGPT **ixtiyoriy funksiyasini** 2023-yilning martigacha qo'shishni rejalashtirayotgani ma'lum qilgan. **Check Point Research** va boshqalar CHatGPT phishing electron pochta xabarları va zararli dasturlar yozishga qodir ekanligini ta'kidladi, ayniqsa **OpenAI Codex** bilan birlashganda ChatGPT yaratuvchisi OpenAI kompanyasining bosh direktori **Sam Altman**, ilg'or dasturiy ta'minot "(masalan) **kiberxavfsizlik** uchun katta xavf tug'dirishi mumkinligini "yo'zgan.

ADABIYOTLAR:

1. <https://openai.com/blog/chatgpt> - ChatGPT rasmiy veb-sahifasida joylashgan qo'llanma.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/ChatGPT> - ChatGPT haqida wiki qo'llanma.